

**1.** 1994-yil mamlakatimizda hukumat qarori bilan qanday nomlangan?

- A) Amir Temur yili
- B) Bobur yili
- C) Alisher Navoiy yili
- +D) Ulug‘bek yili

### O‘zbekistonda yillarning nomlanishi

<b><u>1991-yil «Alisher Navoiy yili»</u></b>
1992-yil «Hamshiralar yili»
1993-yil «Ahmad Yassaviy yili»
<b><u>1994-yil «Mirzo Ulug‘bek yili»</u></b>
1995-yil «Ibn Sino yili»
<b><u>1996-yil «Amir Temur yili»</u></b>
1997-yil «Inson manfaatlari yili»
1998-yil «Oila yili»
1999-yil «Ayollar yili»
<b><u>2000-yil «Sog‘lom avlod yili»</u></b>
<b><u>2001-yil «Onalar va bolalar yili»</u></b>
2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili»
2003-yil «Obod mahalla yili»
2004-yil «Mehr-muruvvat yili»
<b><u>2005-yil «Sihat-salomatlik yili»</u></b>
2006-yil «Homiylar va shifokorlar yili»
<b><u>2007-yil «Ijtimoiy himoya yili»</u></b>
<b><u>2008-yil «Yoshlar yili»</u></b>
2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili»
<b><u>2010-yil «Barkamol avlod yili»</u></b>
2011-yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»

2012-yil «Mustahkam oila yili»
2013-yil «Obod turmush yili»
<b><u>2014-yil «Sog‘lom bola yili»</u></b>
<b><u>2015-yil «Keksalarни e’zozlash yili»</u></b>
<b><u>2016-yil «Sog‘lom ona va bola yili»</u></b>
<b><u>2017-yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»</u></b>
<b><u>2018-yil «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili»</u></b>
2019-yil «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»
2020-yil «Ilm-ma'rifikat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»
2021-yil «Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»
<i>Alohida ajratib ko‘rsatilgan yil nomlari darslikda berilgan.</i>

**2.** O‘rta Osiyoning qaysi hududidan eng qadimgi yozuv topilgan?

- A) Baqtriya
- +B) Xorazm
- C) So‘gdiyona
- D) Farg‘ona

**3.** Nechanchi yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan?

- +A) 1989-yilda
- B) 1985-yilda
- C) 1995-yilda
- D) 1992-yilda



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

**4.** Arab xalifaligi davrida Movarounnahrda islomni qabul qilmagan aholidan qanday soliq undirib olingan?

- A) xiroj
- B) shulen
- C) kalon
- +D) jizya

Xiroj – arablar davrida yer solig‘i

Shulen – Chig‘atoy ulusi davrida oziq-ovqat solig‘i

Kalon – Chig‘atoy ulusi davrida yer solig‘i

**5.** Nechanchi yildan boshlab Turkiston jadidlari siyosiy harakat sifatida faoliyat ko‘rsatga boshladi?

- A) 1893-yildan
- B) 1867-yildan
- C) 1930-yildan
- +D) 1917-yildan

**6.** O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisi ish faoliyatini boshlagan yilni toping.

- A) 1997-yil
- +B) 1995-yil
- C) 1993-yil
- D) 1998-yil

- ✓ 1990–1994-yillarda – Oliy Kengash (150 deputat, bir palatali)
- ✓ 1995–2004-yillarda – Oliy Majlis (250 deputat, bir palatali)
- ✓ **2005-yildan** boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi **ikki palatadan** – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi.

**7.** Buxoro qachondan boshlab “Qubbat ul-islom” – Islom dinining gumbazi nomi bilan shuhrat topgan?

- A) X asrdan
- +B) IX asrdan
- C) XII asrdan
- D) XI asrdan

**8.** O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan 2001-yildan boshlab qaysi kun Respublikamizda “Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni” sifatida o‘tkaziladigan bo‘ldi?

- +A) 31-avgust
- B) 9-may
- C) 22-mart



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

D) 1-sentabr

O‘zbekistonda rasman **3 ta** xotira kuni mavjud:

- 1) 1999-yildan boshlab **9 may** – «Xotira va qadrlash kuni»;
- 2) 2001-yildan e’tiboran **31-avgust** – «Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni»;
- 3) 2017-yildan boshlab **2-sentabr** – O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni.

**9.** Nечаничи yilda Respublikamizda Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta’sis etilgan?

- A) 1993-yil
- B) 1994-yil
- +C) 1991-yil
- D) 1996-yil

**Tarixiy shaxslar nomiga atab qo‘yilgan  
Davlat mukofoti va ordenlar**

Nomi	Ta’sis etilgan yili
Alisher Navoiy	1991
Kamoliddin Behzod	1997
Zulfiya	1999
Jaloliddin Manguberdi	2000

**10.** 747–749-yillarda Xuroson va Movarounnahrda kim boshchiligidida qo‘zg’olon bo‘lib o’tgan?

- A) Abruy (585–586-yillar, Buxoroda)
- B) Mahmud Tarobiy (1238-yil, Buxoroda)
- +C) Abu Muslim
- D) Rofe ibn Lays (806-yil, Samarqanddan boshlangan)

**11.** 1646-yilda Yangi Urganch shahrini qurdirgan Xiva xonini aniqlang.

- +A) Abulg‘oziy Bahodirxon
- B) Olloqulixon
- C) Eltuzarxon
- D) Elbarsxon

Shohobod [hozirgi Shovot] kanalini esa Anushaxon qurdirgan.

**12.** Samarqanddagi Registon ansamblining hozirgi qiyofasi nechanchi asrda shakllangan?

- A) XVI asrda
- B) XVIII asrda



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

- C) XV asrda  
+D) XVII asrda

**13.** 585–586-yillarda Buxoroda qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonga kim rahbarlik qilgan?

- A) El Arslon  
B) Spitaman  
+C) Abruy  
D) Abu Muslim

Ushbu qo‘zg‘olon ko‘tarilgan davrda Turk xoqoni Qoracho‘rin edi, El Arslon tomonidan bostirilgan.

**14.** Nechanchi yilda Muhammad Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini taxt vorisi etib tayinlagan?

- +A) 1220-yil  
B) 1221-yil  
C) 1219-yil  
D) 1218-yil

Jaloliddin Manguberdi 1198–1231-yillarda yashab o‘tgan, 1220–1231-yillarda hukmronlik qilgan.

**15.** Nechanchi yilda Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan?

- A) 1881-yilda  
B) 1856-yilda  
+C) 1867-yilda  
D) 1875-yilda

Turkiston viloyati – 1865-yil

Turkiston general-gubernatorligi – 1867-yil

Turkiston general-gubernatorligining birinchi general-gubernatori **Kaufman**, oxirgi general-gubernatori esa **Kuropatkin**.

**16.** Noyob me’morchilik obidasi bo‘lgan Ichan qal’a nechanchi yilda alohida muhofazaga olingan muzey-qo‘riqxonaga aylantirilgan?

- +A) 1961-yil  
B) 1969-yil  
C) 1993-yil  
D) 1990-yil

1961-yil – alohida **muhozagaga olindi** va **muzey-qo‘riqxonaga aylantirildi**.



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

1969-yil – muzey-qo'riqxona “**Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi**” deb ataldi.  
1990-yil – Ichan Qal'a **Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga** kiritildi.  
Maydoni – 26 ga  
Me'moriy obidalar soni – 54 ta

**17.** O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasi nechanchi yillarga mo'ljallangan?

- +A) 2017–2021-yillarga
- B) 2018–2022-yillarga
- C) 2017–2022-yillarga
- D) 2018–2021-yillarga

**18.** Qaysi hukmdor hukmronligi davrida Kushon davlati hududida buddaviylik dini kirib kelgan?

- +A) Kanishka
- B) Mitridat I
- C) Vima Kadfiz
- D) Kudzula Kadfiz

**19.** Mil. avv. VII–VI asrlarda **Surxon** vohasi, **Afg'onistonning** shimoliy, **Tojikistonning** janubiy hududlarida yashagan xalq (elat)ni belgilang.

- +A) baqtriyaliklar
- B) xorazmliklar [Amudaryoning quyi oqimida]
- C) so'g'diyilar [Zarafshon va Qashqadaryo vohasida]
- D) saklar [O'rta Osiyoning tog'lik, dasht va cho'l yerlarida]  
[massagetlar – Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida]

**20.** Arxeologik aniqlashicha, mil. avv. III asrda asos solingan Qang' davlati qaysi hududda tashkil topgan?

- A) Zarafshon vohasida
- B) Amudaryo bo'ylarida
- C) Qashqadaryo vohasida
- +D) Toshkent vohasida

**Davan** davlati esa **Farg'ona** hududida tashkil topgan.

**21.** Toshkent shahrini podsho Rossiyasining kim boshchiligidagi qo'shinlari egallagan?

- A) fon Kaufman
- B) M. Skobelev
- C) F. Romanovskiy
- +D) M. Chernyayev

**22.** 1893-yilda birinchi jadid maktabi qayerda ochilgan?



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

- A) Xiva xonligida
- +B) Buxoro amirligida
- C) Qo‘qon shahrida
- D) Toshkent shahrida

1884-yil – 1-jadid maktabi Qrimdagi Bog‘chasaroyda Ismoil G‘aspirali tomonidan ochilgan.

TURKISTONDA...

1893-yil – 1-jadid maktabi **Buxoro amirligida** ochilgan.

1898-yil – 2-jadid maktabi **Qo‘qon shahrida Salohiddin domla** tomonidan ochilgan.

1899-yil – **Andijonda** Shamsiddin domla va **Toshkentda** Mannon qori tomonidan jadid maktablari ochilgan.

O’rta Osiyo jadidlarining otasi – Mahmudxo‘ja Behbudiy

**23.** Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1994-yilda
- B) 1996-yilda
- C) 1993-yilda
- +D) 1995-yilda

Muzey va orden esa 1996-yilda

**24.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri 1370-yilda Movarounnahr amiri deb e’lon qilingan?

- A) Mirzo Ulug‘bek
- +B) Amir Temur
- C) Amir Husan
- D) Zahiriddin Muhammad Bobur

**25.** O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qachon Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida “**Shahidlar xotirasi**” yodgorlik majmuasi ochilgan?

- A) 2009-yil 31-avgust
- B) 1992-yil 9-may
- +C) 2000-yil 12-may
- D) 2013-yil 2-mart

**26.** “Samoviy harakatlar va umumiyligi nujum” nomli asarning muallifini aniqlang.

- A) Abu Rayhon Beruniy
- B) Abu Nasr Farobi
- +C) Ahmad al-Farg‘oniy



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

D) Abu Ali ibn Sino

Abu Rahyon Beruniy	Abu Nasr Farobiyy	Ahmad al-Farg'oniy	Abu Ali ibn Sino
1) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”; 2) “Hindiston”; 3) “Mineralogiya”; 4) “Geodeziya”	1) “Arastuning ‘Metafizika’ asariga sharh”; 2) “Musiqa kitobi” 3) “Baxt-saodatga erishuv haqida”; 4) “Tirik mavjudot a’zolari haqida”; 5) “Fozil odamlar shahri”	“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum”	“Al-qonun fit-tib”

**27.** Ko‘zaliqir qaysi qadimgi davlatning shahri hisoblangan?

- A) Baqtriya
- +B) Xorazm
- C) So‘gdiyona
- D) Qang‘

**28.** Saklar asos solgan qadimgi davlatni belgilang.

- A) So‘gdiyona
- +B) Qang‘
- C) Yunon-Baqtriya
- D) Baqtriya

**29.** Shiroq haqida rivoyat keltirgan tarixchini aniqlang.

- A) Gerodot
- +B) Polien
- C) Strabon
- D) Arrian

**30.** Antropologlar tomonidan tosh asriga mansub 8–9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari qayerdan topib o‘rganilgan?

- +A) Teshiktosh g‘oridan
- B) Zarautsoy darasidan
- C) Ko‘lbuloq manzilgohidan
- D) Selungur g‘oridan

**31.** XIV asrda Chig‘atoy xonlaridan kim birinchi bo‘lib o‘z qarorgohini Movarounnahrga ko‘chirgan?

- +A) Kebek
- B) Tug‘luq Temur



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

- C) Munke
- D) Abulxayrxon

**32.** Amir Temur bilan kurash olib borgan Balx hukmdorini aniqlang.

- A) Amir Hoji Barlos
- B) Tug'luq Temur
- C) Ismoil Safaviy
- +D) Amir Husayn

**33.** Qo'qon xonligida asosiy soliq nima deb atalgan?

- A) ushr
- +B) xiroj
- C) tanobona
- D) zakot

**34.** Tarixda "Loy jangi" nomi bialn shuhrat topgan jang nechanchi yilda bo'lib o'tgan?

- A) 1388-yilda
- B) 1370-yilda
- +C) 1365-yilda
- D) 1402-yilda

Amir Temur va Usmonli Turkiya sultonasi Boyazid o'rtaida 1402-yilda "Anqara jangi" bo'lib o'tgan.

**35.** Arxeologlar tomonidan topib o'rorganilgan qadimiy shahar xarobalari – Yerqo'rg'on va Uzunqir O'zbekistonning qaysi viloyati hududida joylashgan?

- +A) Qashqadaryo
- B) Buxoro
- C) Surxondaryo
- D) Xorazm

Yerqo'rg'on va Uzunqir – Qashqadaryo

Qiziltepa – Surxondaryo

Afrosiyob – Samarqand

Ko'zaliqir – Xorazm

**36.** O'zbekiston hududidagi qaysi manzilgohda ilk shahar alomatlari ko'zga tashlangan?

- A) Ko'lbuloq
- B) Obishir
- +C) Jarqo'ton
- D) Selungur



**37.** Qaysi madrasa XVI asrda Buxoroda barpo etilgan?

A) Ixlosiya madrasasi [Hirotda, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida qurilgan]

+B) Mir Arab madrasasi [Ubaydullaxon o'zining ma'naviy ilxomchisi Abdulla Sabroniy (taxallusi Mir arab)ga atab qurdirgan]

C) Qutbiddin Sadr madrasasi [Samarqandda, temuriylar davrida qurilgan.]

Samarqandda shuningdek o'sha davrda Xonim (1404-yil, Saroymulkxonim tomonidan qurilgan), Muhammad Sadr madrasalari qurilgan]

D) Farjak madrasasi [Buxoroda, X asrda qurilgan, O'rta Osiyodagi birinchi madrasa hisoblanadi]

XVI asrda Shayboniyalar davrida qurilgan madrasalar:

✓ **Buxoroda** – 1) Mir Arab, 2) Abdullaxon, 3) Qulbobo Ko'kaldosh; 4) Nodir devonbegi; 5) Ernazar Elchi;

✓ **Samarqandda** – Shayboniyxon;

✓ **Toshkentda** – 1) Baroqxon, 2) Ko'kaldosh

**38.** Hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida mil. avv. VIII–VII asrlarda asos solingan qadimiy shaharni belgilang.

A) Varaxsha

B) Ko'zaliqir

+C) Afrosiyob

D) Jarqo'ton

**39.** Qaysi davlat milodiy III asrda parchalanib ketgan?

+A) Qang'

B) Turk xoqonligi

C) Yunon-Baqtriya

D) Xorazm

✓ III asrda parchalanib ketgan davlatlar – Qang', Davan, Kushon.

✓ Yunon-Baqtriya esa mil. avv. II asr (mil. avv. 140–130-yillar)da yuechjilar tomonidan qulatilgan.

**40.** O'rta Osiyoga harbiy yurish qilgan fors podshosini aniqlang.

+A) Doro I

B) Mitridat I

C) Salavk

D) Kanishka

O'rta Osiyoga yurish qilgan dastlabki fors podshosi esa Kir II hisoblanadi. U To'maris bilan jangda halok bo'lган.

**41.** O'rta Osiyo xonliklarida masjid, mozor, xonaqoh, maktabxona, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar nima deb atalgan?



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

- A) tanho
- B) suyurg'ol
- C) amlok
- +D) vaqf

Amlok – davlat yerlari

**42.** Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asari muallifini aniqlang.

- +A) Kvint Kursiy Ruf
- B) Strabon
- C) Gerodot
- D) Arrian

Arrian – "Aleksandrning harbiy yurishlari" ("Aleksandr anabasisi") asarini yozgan.

**43.** Quyidagilardan "Avesto"ning alohida qismlarini ilk marotaba tarjima qilgan olimni toping.

- A) F. Rixtgofen
- B) G. Shlimann
- +C) A. Dyuperron
- D) F. Shampolyon

F. Rixtgofen – "Buyuk Ipak yo'li" atamasini fanga kiritgan.

**44.** Toshkent vohasidagi qaysi manzilgohdan toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari topilgan?

- A) Teshiktosh [Surxondaryoda]
- +B) Ko'lbuluoq [Toshkentda]
- C) Selungur [Farg'onada]
- D) Machay

\*\*\*

**45.** Turkiston Muxtoriyatining markazi etib belgilangan shaharni toping.

- +A) Qo'qon
- B) Toshkent
- C) Samarqand
- D) Buxoro

**46.** 1920-yilda tugatilgan davlatni toping.

- +A) Buxoro amirligi
- B) Turkiston Muxtoriyati
- C) Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

D) O'zbekiston SSR

**47.** 1920-yilda tugatilgan davlatni toping.

- +A) Xiva xonligi
- B) Turkiston Muxtoriyati [1917-yilda tashkil topgan, 1918-yilda tugatilgan]
- C) Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi [1918-yilda tashkil topgan]
- D) O'zbekiston SSR [1925-yilda tashkil topgan]

**48.** O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan shaharni toping.

- +A) Samarqand
- B) Qo'qon
- C) Xiva
- D) Jizzax

O'zbekiston SSR ning poytaxtlari: Buxoro → Samarqand → Toshkent

**49.** 1917-yilda quyidagi qaysi shaharda bo'lib o'tgan Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e'lon qilingan?

- +A) Qo'qon
- B) Toshkent
- C) Samarqand
- D) Buxoro

**50.** Nechanchi yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan latin grafikasiga o'tilgan?

- +A) 1929-yilda
- B) 1940-yilda
- C) 1917-yilda
- D) 1936-yilda

Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda imlo 3 marta o'zgartirildi.

- 1) 1921–1922-yillarda dastlab **arab imlosi isloh qilinib**, ancha soddalashtirildi;
- 2) 1929-yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan **latin grafikasiga o'tildi**
- 3) 1940-yilda latin grafikasidan **kirill yozuviga o'tildi**.

**51.** Quyidagi qaysi hukmdor davridan boshlab Shayboniyalar davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi?

- +A) Ubaydullaxon
- B) Muhammad Shayboniyxon
- C) Abdullaxon II
- D) Ko'chkunchixon



(97) 299 00 66



@TESTLIDER



XORAZM

**52.** Xiva xonligiga qaysi sulola asos solgan?

- +A) shayboniyalar
- B) qo‘ng‘irotlar
- C) mang‘itlar
- D) minglar

- ✓ Birinchi o‘zbek davlati Buxoro xonligi va Xiva xonligiga shayboniyalar asos solishgan.
- ✓ Xiva shayboniyalari arabshohiyalar deb ham ataladi.
- ✓ Buxoro amirligiga mang‘itlar asos solishgan.
- ✓ Qo‘qon xonligiga minglar asos solishgan.

**53.** “Shajarayi turk” asari muallifini toping.

- +A) Abulg‘oziyxon
- B) Muhammad Solih [“Shayboniynoma”, shuningdek Kamoliddin Binoiy ham “Shayboniynoma” nomli asar yozgan]
- C) Muhammad Shayboniyxon [“Devon” nomli asari Istanbulda saqlanadi]
- D) Zahiriddin Muhammad Bobur

**54.** 1740-yilda Xiva va Buxoro xonligini bosib olgan Eron shohini toping.

- +A) Nodirshoh
- B) Ismoil Safaviy
- C) Abbas I
- D) Taxmasp II

**55.** III asr o‘rtalarida Xorazm davlatining poytaxti quyidagi qaysi shahar xarobasining o‘rnida bo‘lgan?

- +A) Tuproqqa'l'a
- B) Quva
- C) Varaxsha
- D) Afrosiyob

**56.** Farg‘ona hukmdorlari ilk o‘rta asrlarda qanday nomlangan?

- +A) Ixshid
- B) Yabg‘u
- C) Xoqon
- D) Sho(shoh)

**57.** O‘rta Osiyo aholisining asosiy qismi VI-VII asrlarda qaysi dinga e’tiqod qilgan?

- +A) zardushtiylik
- B) moniylik
- C) nasroniylik
- D) buddaviylik



**58.** VIII asr boshlarida arablarning Movarounnahrga harbiy yurishlariga boshchilik qilgan shaxsni toping.

- +A) Qutayba ibn Muslim
- B) Ubaydulloh ibn Ziyod
- C) Muoviya I
- D) Rofe ibn Lays

**59.** Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir – “Muallim us-soniy” nomi bilan shuhrat topgan allomani toping.

- +A) Abu Nasr Forobiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Abu Ali ibn Sino
- D) Ahmad al-Farg‘oniy

**60.** O‘rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashga kim boshchilik qilgan?

- +A) Spitaman
- B) Frada [Doro I ga qarshi Marg’iyonada qo‘zg’olon ko’targan]
- C) Shiroq [afonaviy shaxs, Doro I ga qarshi harakat qilgan]
- D) To‘maris

**61.** O‘rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo‘lingan?

- +A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 2 ta

**62.** Quyidagi qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari dastlab, “malikshoh”, keyinchalik “yabg‘u” nomi bilan atalgan?

- +A) Tohariston
- B) Eloq
- C) Farg‘ona
- D) Sug‘d

**63.** 1892-yilda tarixda “Vabo isyoni” (yoki “Toshotar” voqeasi) deb nom olgan qo‘zg’olon qayerda bo‘lib o’tgan?

- +A) Toshkentda
- B) Andijonda
- C) Buxoroda
- D) Qo‘qonda

Dukchi Eshon qo‘zg’oloni 1898-yilda Farg‘onada bo‘lib o’tgan.

**64.** Quyidagilardan 1865-yilda tashkil etilgan Orenburg general-gubernatorligi tarkibidagi Turkiston viloyati gubernatori bo'lgan shaxsni toping.

- +A) M.Chernyyayev
- B) K.P. fon Kaufman
- C) M.Skobelev
- D) V.Perovskiy

**65.** Qaysi hukmdor davrida Xivada "xon navkarlari" deb atalgan muntazam qo'shin tuzilgan?

- +A) Muhammad Rahimxon I
- B) Muhammad Amin inoq
- C) Olloqulixon
- D) Eltuzar

**Buxoroda Amir Nasrullo, Qo'qonda Olloqulixon muntazam qo'shin tuzgan.**

**66.** Mil. avv. VII-VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yunon yozma manbalarida bu hudud nima deb nomlangan?

- +A) So'g'diyona
- B) Xorasmiya
- C) Baqtriana
- D) Davan

**67.** Qaysi daryo qadimda Oks deb atalgan?

- +A) Amudaryo
- B) Sirdaryo [Yaksart]
- C) Zarafshon [Politimet]
- D) Qashqadaryo

**68.** Shayboniyilar davrida davlat muassasalari qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq nima deb atalgan?

- +A) ixrojot
- B) xiroj
- C) zakot
- D) jizya

**69.** XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug'ullangan?

- +A) mutavalli
- B) mehtar
- C) mushrif
- D) shayxulislom



**70.** Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan qaysi shaharda har ikki yilda bir marotaba “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o’tkazilib kelinmoqda?

- +A) Samarqand
- B) Buxoro
- C) Xiva
- D) Qo‘qon

**71.** O‘zbek adabiyotida poeziyaga masalni bиринчи bo‘lib mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkorni toping.

- +A) Gulxaniy
- B) Maxmur
- C) Muqimiy
- D) Turdi Farog‘iy

**72.** Nechanchi yilda Toshkentda Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilgan?

- +A) 1999-yil
- B) 2000-yil
- C) 2001-yil
- D) 1995-yil

**73.** 2000-yildan boshlab yurtimizda **o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi** muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida har 3 yilda o’tkazila boshlagan sport musobaqalari qanday nomlangan?

- +A) “Barkamol avlod”
- B) “Umid nihollari”
- C) “Universiada”
- D) “Istiqlol yulduzlar”

- ✓ **oliy o‘quv yurtlari** talabalari o‘rtasida – “Universiada”;
- ✓ **o‘rta maxsus** kasb-hunar kollejlari talabalari o‘rtasida – “Barkamol avlod”;
- ✓ **umumta’lim maktablari** o‘quvchilari o‘rtasida – “Umid nihollari”.

**74.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi buniyod etilgan?

- +A) Bekobod    B) Navoiy
- C) Qo‘qon       D) Buxoro

